

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBİYALASH

Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi

Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti, maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2017-yilda "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmonida ham maktabgacha ta'lim muassasalarida yosh bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik, milliy o'zlikni anglash g'oyalarni yanada chuqur singdirish, "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlashga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish kabi fikrlar ilgari surilgan. Xalqimiz farzandlarini doimo tabiatga mehrlilik bo'lish tevarak-atrof, suv, havo, tuproq hayvonot olamini asrab-avaylash, insonni oliy qadriyat deb bilish, uning haq-huquqlarini himoya qilish ruhida tarbiyalagan. Bular haqida ham shunday bebaho o'git va yo'l-yo'riqlar, umuminsoniy ahamiyatga molik fikrlar bayon etilganki, ular hozirga qadar ham o'z qimmatini yo'qotmagan.

Bog'cha tarbiyalanuvchilari ongida yuqoridagi fazilatlarni shakllantirishda oila va tarbiyachi hamkorligi alohida o'rin tutadi. Ta'lim jarayonida maktabgacha ta'lim muassasasi bilan uy, pedagogik jamoa bilan ota-ona hamjihatligi yaxshi samara berishi amalda isbotlangan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda oilada ota-ona, aka-uka hamda opa-singillarning ham alohida o'rinni egallashi bu oiladagi muhitga juda ham bog'liq deb hisoblasak bo'ladi. Barkamol avlodning tarbiyasi haqida gapirar ekanmiz Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Kelajak – bog'chadan boshlanadi" degan fikrlari beixtiyor yodimizga keladi. Darhaqiqat bog'cha bu bolalarimizning ham tarbiyaviy ham intellektual bilimlarning olishilari uchun debocha dargoh hisoblanadi. Axloq – arabcha xulq atvor ma'nosini bildiradi. U ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs hatti-harakatini tartibga soladigan qonun qoidalar majmuidir.

Axloq-shaxs yoki guruh faoliyatini baholashorqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mexanizmi hisoblanadi. Har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'zo'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin."– deb ta'kidlaydi.. Asriy qadriyatlarimiz tiklanmoqda. Xalqimiz ma'naviyati o'zining tabiiytarixiy, milliy, diniy va falsafiy sarchashmalariga qaytmoqda. Ayniqsa ma'naviy meroslarimizni o'rganish, buyuk allomalarimiz va ulug' ajdodlarimizning muborak nomlari xalqimizga qaytarilishi, tilimiz va dinimiz rivojlanishi uchun sharoit yaratilgani o'zbek ma'naviyati uchun buyuk xaloskorlik va millatimizning kelajak taraqqiyoti uchun qudratli kuch, omil bo'ldi. Mustaqillik sharoitida, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda, yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, ma'naviy yetuk insonlarni tarbiyalashda ma'naviy merosimizga munosabatimiz, uning bugungi va ertasi, qanday bo'la oladi, komil inson mezonlarida tarbiya topayotgan bugungi yoshlarimiz mamlakatimizning barqarorligi, taraqqiyotida egallaydigan o'rni, umuman, yuksak ma'naviyatli jamiyatni barpo etish, boshqa ilg'or xalqlarda bo'lgani kabi, bizning millatimiz, jamiyatimiz uchun o'zining dolzarbligini hech qachon yo'qotmasligi milliy ma'naviyatimiz qanchalar teran ekanligidan dalolat beradi. Vatanimiz zaminida kamolotning poydevori oilada bunyod etiladi. Asrlar davomida shakllangan an'anayu udumlarimiz, ijtimoiy ma'naviy qadriyatlarimiz barhayotligini ta'minlab, avlodlardan-avlodga yetishiga xizmat qilayotgan ham shubhasiz oila qo'rg'onidir. Qolaversa, oila bugungi kunga kelib butun dunyoda, hatto shaxs individualizmi har narsadan ustun qo'yiladigan g'arb mamlakatlarida ham jamiyat ustuni, insonga o'zligini anglatuvchi dargoh sifatida tan olinmoqda. Oilaga jamiyat instituti maqomi berilganiyoq uning mustahkamligi jamiyat ravnaqi uchun naqadar ahamiyatli ekanidan dalolatdir. Jumladan, yurtboshimizning quyidagi fikrlari so'zimizning yorqin isbotidir: "Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi. Shaxsan menga «nasl» va «nasiba» degan so'zlar o'rtasida qandaydir ilohiy bog'liqlik bordek tuyuladi. Albatta, har bir bandaga rizk-nasibani Oллоh taolo beradi. Lekin bu xayotda nasibasi butun va to'la bo'lishi uchun insonning o'zi ham chin dildan intilishi, zurriyodini sog'lom muhitda tarbiyalashi katta ahamiyatga ega ekanini unutmasligimiz zarur. Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxtu saodat faqat boylik, molu mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

Maktabgacha yoshdagi axloqiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri shuki yosh davrdagi bolalar kattalarga ta'qlid qiladilar. Oilaviy marosimlarda oilada katta yoshdagi insonlarning bir biriga va atrof muhitga, bo'ladigan voqiylikka bo'lgan munosabatlari albatta kichik yoshdagi bolalarga ham yo ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu o'rinda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida tahsil olishi ham bog'cha va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishi zarurligini alohida aytsak bo'ladi. Oiladagi tarbiya o'z xususiyati jihatidan boshqa maskanlardagi tarbiyadan ajralib turadi. Bunda asosiy omil ota-onaning o'z farzandlariga muhabbati va mehrini shunga javoban farzandlarning ota-onasiga nisbatan mehru-oqibatini ko'rish mumkin. Bola, ayniqsa, ilk yoshlarida ko'proq oilaning ta'sirida bo'ladi. Oila kichkintoyini asta-sekin kichik ijtimoiy guruhdan katta ijtimoiy hayotga olib chiqish, unga ko'nikma hosil qilishi hamda uning fikr doirasini kengaytira borishga qodir dargohdir. Ushbu jarayonlar davrida oilaviy marosimlarning bola axloqiga ijobiy ta'sirlarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulq-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o'rin tutadi. Insonparvarlik hissi axloq normalari va qoidalarini o'rgatish asosida rivojlanadi. Buning uchun bolalarni oilaviy marosimlar va urf odatlar orqali yaxshi ishlar qilishga o'rgatib borish kerak. Insonparvarlikni tarbiyalashda bolalarning yoshini e'tiborga olish lozim. Ularga quyidagi tushunchalar ilk yoshidanoq tushuntirib boriladi: bola buni anglay olmaydi, deb hisoblash noo'rin. Yiqilib tushgan bolani o'rnidan turishga yordam berish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish, o'yinchog'ini o'rtog'iga berib turish, tik turgan kishiga joy berish, eng muhimi bolaga oilada oilaviy marosimlarda kattalarga bo'lgan e'ribor hurmat va izzatda boshqalarga ko'rsatilgan xizmatni bola o'z ko'zi bilan ko'rishini uning axloqiy tarbiyalanishida juda katta ijobiy ta'sir qiladi va bu katta o'zgarishlarga olib keladi. Oilaviy marosimlar xalq ma'naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyati, ta'sirchan tarbiya vositasi sanaladi. Oilaviy marosimlar jarayonida namoyon bo'ladigan axloq-odob, mehr-oqibat kabi xislatlar yoshlar ma'naviyati shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Xalq an'analari qadrlanadigan oilalarda tarbiya topgan yoshlar ibratli axloqi bilan bosh qalardan ajralib turadi. Bunday oilalardan jinoyatchi, bezori kishilar chiqmaydi. Shu bois xalq an'analari va oilaviy urf-odatlar yordamida yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ajdodlarmiz asrab-avaylab kelgan urf-odatlarimizni, sharqona odobimizni, naslimiz pokligini, buyukligimizni asrab-avaylab kelgusi avlodga yetkazish siz-u bizning qo'limizdadir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda ota-ona tomonidan beriladigan e'tibor shu bilan birga oiladagi muhit qolaversa oilaviy marosimlarning nihoyatda katta o'ringa ega ekanligini kundalik turmush hayotimizga singib ketganligidan ham ko'rishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Бердиева, Ханифа Мейлиевна Изучение научных основ механизации и автоматизации управления сельским хозяйством в курсе физики средней школы (на материале сельских школ Узбекистана). <https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-02/dissertaciya-izuchenie-nauchnyh-osnov-mehanizatsii-i-avtomatizatsii-upravleniya-selskim-hozyaystvom-v-kurse-fiziki-sredney-shkoly-na-m>
2. Бердиева Х.М., Шаманов М.Х., Абдурахмонова Р.Х., Гулбоева Б.Н. Технология и методика обучения учащихся общеобразовательных школ // Студенческий вестник: электрон. научн. журн. 2018. № 29(49). URL: <https://internauka.org/journal/stud/herald/49> (дата обращения: 10.03.2022).
3. Бердиева Х.М. Развитие профессиональных коммуникативных навыков педагогов в сфере образования. <https://s.siteapi.org/d955411c180ee78/docs/khhp4bee6u8g8goowcsg0gcg8os0kw>
4. Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna Pedagogical support and development of the intellectual opportunities of children in preschool education <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2019/12/abstract-pedagogical-support-and-development-of-the-intellectual-opportunities-of-children.pdf>
5. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat. The quality of preschool education at the present stage. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year : 2021, Volume : 11, Issue : 10. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001>
6. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat Tasks for preschool educators. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023>
7. Berdiyeva M.M. Formation of intellectual culture of a preschooler. <https://scientific-conference.com/images/PDF/2019/55/International-scientific-review-LIV-ISBN.pdf>
8. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Мактаб ўқувчиларини касб-хунарга ўргатиш йўллари. <https://sciencecentrum.pl/wp->

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

[content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf](https://www.sciencecentral.com/content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf)

9. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Таълим тизимини модернизациялашдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш усуллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>

10. Бердиева Мухабат Мейлиевна. Педагогик кўллаб-қувватлаш асосида илк ёшдаги болаларни интеллектуал ривожлантириш. “Профессионал таълим тизимида ислохотлар: малака ошириш таълим турида инновацион ғоялар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. <https://staff.tiame.uz/storage/users/546/articles/iMJfaUDoPQYZqSxUhG7olj9aZ9XSLff9CSErkMxL.pdf>

11. Usmanova Saodat Erkinovna. (2021). Formation of spiritual and moral qualities of preschoolers on the basis of public education. *Middle European Scientific Bulletin*, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.421>

12. Усманова Саодат Эркиновна Возможности Использования Мультимедийных Компьютерных Программ В Развитии Детей Дошкольного Возраста. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46438589>

13. Jumayeva malika aliyevena, & buriyev jamshid jumanazarovich. (2021). The role of activity in the upbringing and development of the child . *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(2), 126–129. Retrieved from <https://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/40>

14. Jumayeva Malika Aliyevna. (2021). Independent musical activity in preschool organizations. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(1), 9–10. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/jedic/article/view/16>

15. Aliyevna, J. M. (2021). The Social Activity of the Educator with the Family. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 12, 401-403. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/338>

16. Lola Utasheva Shoturaevna. (2021). Social and pedagogical activities in preschool educational institutions. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(11), 412–415. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/193>

17. Shoturayevna, U. L. (2021). Development of Creative Competence of Educators in Preschool Educational Institutions. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 12, 395-397. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/336>

18. Radjabova G.M. The educational value of oral folk art for preschoolers // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.*

19. Berdieva M.M. Increasing the research activity of a pupil of a preschool organization // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.*

20. Berdieva Kh.M. Functions of the organization of advanced training of teachers in the field of education // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.*

21. Utasheva L.Sh. Introducing preschoolers to the world of fiction // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С. {см. сборник}.*

22. Usmonova S.E. Plot construction as a means of developing the creative abilities of children // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.*

23. Muhammadiyeva F.T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.*

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

24. Mamatmuminova M.G. Features of the use of animation in the development of creative abilities of preschoolers // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.